

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA OILANING O'RNI VA ROLI**Ilashboyeva Ifoda Damir qizi***ilashboyevai@gmail.com*

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbek tili ta'limi fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası,

Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397316>

Annotatsiya. Ushbu maqolada farzand tarbiyasida oilaning o'rni, er-xotin munosabatlarining farzand tarbiyasiga ta'siri, bolaning kelajak hayotidagi o'rnini oiladan boshlab belgilanishi haqida va allomalar fikrlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Oila, jamiyat, farzand, tarbiya, ruhiyat, kelajak, ong, ta'sir, rol, mavqe, munosabat, qadriyat, mas'uliyat.

THE PLACE AND ROLE OF THE FAMILY IN EDUCATION OF A PERFECT GENERATION

Abstract. In this article, the role of the family in child upbringing, the influence of the couple's relationship on child upbringing, the determination of the child's place in the future life starting from the family, and the opinions of scholars are considered.

Key words. Family, society, child, education, psyche, future, consciousness, influence, role, position, relationship, value, responsibility.

МЕСТО И РОЛЬ СЕМЬИ В ВОСПИТАНИИ СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль семьи в воспитании детей, влияние супружеских отношений на воспитание ребенка, определение места ребенка в будущей жизни, начиная с семьи, а также мнения ученых.

Ключевые слова. Семья, общество, ребенок, образование, психика, будущее, сознание, влияние, роль, позиция, отношения, ценность, ответственность.

Kirish. Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak? degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiyoyq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi¹.

Metod va materiallar. Mutafakkirlarning bola tarbiyasida oilaning roli haqidagi ta'limotlarida qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Aristotel bolalar ta'limini jamiyat o'z ixtiyoriga topshirishi, davlat esa ta'lim jarayonida barcha zarur ishlarni amalga oshirishi kerak degan fikrni ilgari surdilar sotsialistlar senator Semon Shari Fure asarlarida yanada rivojlangan. Ular davlat asosan bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak degan g'oyani ilgari surdilar. Ammo sharq mutafakkirlari ota-onalar farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishlari kerak degan xulosaga kelishdi. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berdilar². Rizouddin ibn Fahriddinning "Oila" risolasiga ko'ra, bola tarbiyasi yomon niyat va qo'pollik bilan emas, balki sabr-toqat, matonat, mehr-oqibat, chidamlilik, rahm-shafqat va sezgirlik bilan amalga oshirilishi kerak. Yosh chaqaloqni nazoratsiz saqlash katta xatodir. Balki uni qattqlik bilan yumshoqlik orasida adolatli tarbiyalash kerak, degan fikrlar ham bordir³. Ma'lumki, bola 2-3 yoshdan boshlab o'z ehtiyojlari, fikri va talablarini juda aniq ifodalaydi. U nimani ko'rishi va nimani o'ylashi mumkinligini so'raydi va ularni diqqat bilan tekshira boshlaydi. Ota-onalar farzandlariga milliy fazilatlarimizga mehr bilan qarash, rasoatlardan nafratlanishni o'rgatadi. Ularda xalqimiz orasidan ulug' zotlarning yetukligi haqida so'z boradi. Ulug' o'zbek mutafakkiri Abu Ali ibn Sino kabi allomalarimizning hayotiy misollari, bizlarga qoldirgan buyuk fikrlari asosida bolalarga kamtarlik, donishmandlikka o'rgatish foydalidir. Kibr, manmanlik, o'z bilimni oshirib ko'rish kabi xislatlar insonning axloqi pastligidan dalolat ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, oiladagi bolalarni yoshligidanoq faqat yaxshi odatlarga o'rgatish kerak. Bu kuchli xarakterning shakllanishini ta'minlaydi. Ibn Sino yosh bolalarni go'zal axloqli va jismonan sog'lom qilib tarbiyalashning ko'plab foydali usullarini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida shaxsiy namuna bo'lish usuli juda muhim ekanligi qayta-qayta ta'kidlangan.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy

¹ Mirziyoyev .Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: "O'zbekiston" nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2019

² www.gazeta.uz 2018/07/25.

³ Rizouddin ibn Faxriddin. Oila. – T: Mehnat, 1991

tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi"⁴. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim. Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi⁵.

Xulosa. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'lim-tarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligi haqida o'qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim⁶.

Oilaviy munosabatlar farzandlar uchun katta ahamiyatga ega, ularning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga ko'mak qiladi va ularning hayotga kirib borishini ta'minlaydi. Ota-ona munosabatlari farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, hattoki farzandlarining kelajakda qanday inson bo'lib yetishishlari ham bunga bog'liq bo'ladi. Nafaqat ota-ona bilan bola, balki er va xotin o'rtasidagi munosabat ham farzand psixologiyasiga juda katta ta'sir o'tkazadi. Masalan, farzandga ota ham, ona ham birdek yaxshi munosabtda bo'lsa-yu lekin o'zaro munosabatlari salbiy bo'lsa, bu farzand ongiga yaxshi ta'sir etmaydi albatta. Natijada esa bu munosabat bola psixologiyasining buzilishiga olib keladi⁷.

⁴ Samarqand Qishloq Xo'jalik Instituti. Pedagogika Tarixi va G'oyalari (O'quv uslubiy qo'llanma). Samarqand-2014. 14- bet.

⁵ O.U Hasanboyev, M.X Tojiyeva, SH.K Toshpo'latov. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. "ILM ZIYO",2011.- 184 bet

⁶ Mamajonova Z.I, Noqobil oil ava deviant xulq-atvor-5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11236684>

⁷ Mamajonova Z.I, Deviant xulq-atvor turlari: giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish, qonunni buzish va boshqalar-5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11303942>

REFERENCES

1. Mirziyoyev.Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: "O'zbekiston " nashriyot – matbaa ijodiy uyi , 2019
2. www.gazeta.uz 2018/07/25.
3. Rizouddin ibn Faxriddin. Oila. – T: Mehnat, 1991
4. Samarqand Qishloq Xo'jalik Instituti. Pedagogika Tarixi va G'oyalari (O'quv uslubiy qo'llanma). Samarqand-2014. 14- bet.
5. O.U Hasanboyev, M.X Tojiyeva, SH.K Toshpo'latov. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. "ILM ZIYO",2011.- 184 bet
6. Mamajonova Z.I, Noqobil oila va deviant xulq-atvor-5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11236684>
7. Mamajonova Z.I, Deviant xulq-atvor turlari: giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish, qonunni buzish va boshqalar-5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11303942>
8. Zaitov E.X., Jiyanmuratova G.Sh., Nurqulov B.G., Ilhomov U.U. [Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAJ:LO7wyVUgiFcC). – Toshkent: Zuxro baraka biznes, 2024. – 180 b. / https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAJ:LO7wyVUgiFcC
9. Jiyanmuratova G.Sh. Elektoral sotsiologiya zamonaviy sotsiologiyaning yo'nalishi sifatida. Gumanitar fanlarni o'qitishning zamonaviy ilmiy yo'nalishlari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2023-yil 27-aprel. – B. 549-552. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAJ:VaXvl8Fpj5cC
10. Jiyanmuratova G.Sh. The Issue Of Youth Trust In Political Institutions In Sociology. Sotsiologiya va huquq. 2024. 2-jild №3/1/1. – B. 58-65. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAJ:S16KYo8Pm5AC
11. ДЗИЯНМУРАТОВА Г. Ш. ИССЛЕДОВАНИЯ ИЗБИРАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В НАЧАЛЬНЫХ ЭТАПАХ СТАНОВЛЕНИЯ ЭЛЕКТОРАЛЬНОЙ СОЦИОЛОГИИ //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – №. 12. – С. 670-672.
12. Sherbutayevna J. G. YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO 'NALISHI SIFATIDA //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOYIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.

13. Gulnoz J. Sotsiologiya tarixi.–T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.–466 b.
14. Sherbutayevna J. G. et al. YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH–
DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFASI //ZAMONAVIY DUNYONING
IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. –
2024. – T. 1. – №. 1.
15. Джиянмуратова Г. YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN
ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – №. SI-1.